



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY  
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION  
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ  
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ  
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ  
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ  
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF  
ABU RAYHAN BERUNI  
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,  
AND ECONOMY IN THE FIELD OF  
CONSTRUCTION AND  
ARCHITECTURE”  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA  
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA  
1-TO'PLAMI



## **TASHKILIY QO‘MITASI:**

### **RAIS:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,  
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

### **HAMRAISLAR:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va  
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik  
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti  
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi  
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch  
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurov**

### **ILMIY KOTIB:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”  
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

## **TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari  
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod  
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”  
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”  
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusufov, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiyev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikarova, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

### **ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:**

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

Bunday yondashuvlar jahon tajribasida suv tanqisligi sharoitida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelmoqda va ular Nukus uchun ham dolzarb bo'lishi mumkin. Mazkur chora-tadbirlar Nukus shahrida barqaror suv ta'minoti va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, shahar arxitekturasi va shaharsozligi istiqbolini ham yanada samarali yo'nalishga olib chiqadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Orazbaev A.N. va boshq. (2023). Study of the Condition of Water Pipelines and the Quality of Drinking Water in the Water Supply System of the City of Nukus. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(4), 747–751.
2. Aimbetov I., Bekimbetov R. (2022). Ecological and hydrogeological conditions of the city of Nukus. *International Journal of Geology, Earth & Environmental Sciences*, 12, 92–98.
3. Aimbetov I., et al. (2021). Engineering and geoecological assessment of soils salinity in Nukus using GIS technologies. *E3S Web of Conferences*, 265.
4. Jumamuratov D., Abdiganieva G., Turlibaev Z. (2024). Problems of Water Respiratory Systems of Nukus City and Prospects for Their Development. II International Scientific Conference, Nukus.

#### **NUKUS SHAHRI TURAR JOY KOMPLEKSLARINING ARXITEKTURAVIY SHAKLLANISHI**

arx.f.d., dotsent Shnekeev J.K., Magistr Turdibaev M.

*(Qoraqalpoq davlat universiteti)*

#### ***Annotatsiya***

Ushbu maqolada Nukus shahrida kichik turar-joy komplekslarining arxitekturaviy shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Mahalliy an'anaviy hovli uylari, sovet davridagi ko'p qavatli uylar va mustaqillikdan keyingi kichik turar-joy majmualari o'rtasidagi uzluksizlik hamda o'zgarishlar ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda me'moriy tipologiya, hududiy rejalashtirish, qurilish materiallari, ijtimoiy va

ekologik omillar o'rganilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Nukus shahridagi KTKlar zamonaviy qurilish texnologiyalarini qo'llagan holda, hanuz an'anaviy hovli uylarining asosiy elementlarini (hovli, yozgi ayvon, dekorativ darvozalar) saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, ular iqlimiy sharoit va oilaviy turmush tarziga moslashgan.

### **Аннотация**

В данной статье анализируется процесс архитектурного формирования небольших жилых комплексов в городе Нукус. Показана преемственность, а также изменения между местными традиционными домами на заднем дворе, многоэтажными домами советской эпохи и небольшими жилыми комплексами после обретения независимости. В исследовании изучалась архитектурная типология, территориальное планирование, строительные материалы, социальные и экологические факторы. Результаты анализа показывают, что КТК в Нукусе, применяя современные строительные технологии, до сих пор сохраняют основные элементы традиционных дворовых домов. При этом они адаптировались к климатическим условиям и семейному образу жизни.

### **Annotation**

This article analyzes the process of architectural formation of small residential complexes in the city of Nukus. The continuity is shown, as well as the changes between local traditional backyard houses, Soviet-era high-rise buildings, and small residential complexes after independence. The study examined architectural typology, spatial planning, building materials, social and environmental factors. The results of the analysis show that CPC in Nukus, using modern construction technologies, still retains the basic elements of traditional courtyard houses. At the same time, they adapted to the climatic conditions and family lifestyle.

### **Kalit so'zlar**

Nukus, kichik turar-joy komplekslari, hovli uylari, me'moriy tipologiya, barqaror arxitektura, zamonaviy qurilish materiallari, an'anaviy hovli tipidagi uylar.

### **Ключевые слова**

Нукус, небольшие жилые комплексы, дворовые дома, архитектурная типология, устойчивая архитектура, современные строительные материалы, традиционные дома дворового типа.

### **Keywords**

Nukus, small residential complexes, courtyard houses, architectural typology, sustainable architecture, modern building materials, traditional courtyard type houses.

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 23 oktabr kuni uy-joy siyosati masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqida “Uy — bu insonning hayoti, turmush tarzi, butun bir oilaning taqdiri bilan bog‘liq eng muhim masala. Har bir oila munosib uy-joy bilan ta‘minlanishi kerak. Shu bois biz



qishloq va shaharlarda arzon va zamonaviy uy-joylar qurish bo‘yicha keng ko‘lamli dasturlarni amalga oshirmoqdamiz.” degan edi[1].

Hozirgi kunda kichik turar-joy komplekslari (KTK) zamonaviy shaharlarda ijtimoiy va madaniy hayotning asosiy shakllantiruvchi elementlaridan biridir[2].

Nukus shahri Qoraqalpog‘iston Respublikasining yirik ma‘muriy va madaniy markazi bo‘lib, so‘nggi o‘n yilliklarda aholining tez o‘sishi, urbanizatsiya va yangi qurilish siyosati natijasida kichik turar-joy majmualariga talab ortib bormoqda.

## Asosiy qism

Mazkur tadqiqotning maqsadi — Nukus shahridagi KTKlarning arxitekturaviy shakllanish xususiyatlarini aniqlash, ularning rejalashtirish prinsiplari, qurilish materiallari va ijtimoiy funksiyalarini o‘rganishdan iborat[3].

Nukus shahrida turar-joy arxitekturasi evolyutsiyasi uch asosiy bosqichni bosib o‘tgan.

**An‘anaviy davr** — hovli tipidagi uylar o‘zining yopiq hovli tizimi, yozgi ayvonlari va iqlimiy moslashuvchanligi bilan ajralib turgan. Ushbu uylar kengaygan oilalar uchun qulay bo‘lib, qo‘shnichilik va mahalla tizimi bilan chambarchas bog‘langan[4].

**Sovet davri** — tipovoy ko‘p qavatli uylar qurilishi an‘anaviy arxitektura rivojini keskin to‘xtatdi. “Xrushchyovka” tipidagi turar-joylar ijtimoiy jihatdan qulayliklar yaratgan bo‘lsa-da, ular mahalliy iqlimga moslashmagan va oila qadriyatlarini yetarli darajada hisobga olmagan.

**Mustaqillikdan keyingi davr** — yangi kichik turar-joy komplekslari qurilishi orqali mahalliy sharoit va an‘analarni qayta tiklash jarayoni boshlandi. Bu komplekslarda zamonaviy qurilish materiallari ishlatilsa-da, hovli, yozgi ayvon, dekorativ darvoza kabi milliy unsurlar saqlab qolindi.[5]

Nukus shahrida kichik turar-joy komplekslarini rejalashtirish xususiyatlari va tipologik yechimlari, asosan, **klaster shaklida** barpo etilib, 20 dan 100 tagacha uylarni o‘z ichiga oladi[6]. Har bir xonadonning maydoni 300–600 m<sup>2</sup> atrofida bo‘lib, ichki hovli — oilaning kundalik turmush markazi hisoblanadi.

Rejalashtirishda quyidagilar kuzatiladi. 1.



Ichki hovli va tashqi ko‘cha tomonidagi fasad o‘rtasidagi aniq chegaralanish; 2. Yozgi ayvon va oshxona alohida qurilishi; 3. Uy ichida erkaklar va ayollar mehmonxonasi bo‘linishi; 4. Milliy naqshli darvozalar orqali mahalliy identitetning ifodalanishi.

Nukusdagi KTKlar arxitekturasi qurilish materiallari tanlovida **gibridlik** bilan ajralib turadi[7].

**An‘anaviy materiallar** — xom g‘isht, yog‘och, loy qorishmalar;

**Zamonaviy materiallar** — beton blok, temir-beton, issiqlikni ushlab qoluvchi

panellar;

**Yangi texnologiyalar** — plastik deraza romlari, metall profilli tom qoplamalar.

Bu uyg'unlashuv binolarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlasa-da, barqaror energiya tejovchi texnologiyalar hanuz yetarlicha joriy etilmagan.

Qoraqalpog'istonning keskin kontinental iqlimi (issiq yoz va sovuq qish) turar-joy arxitekturasida alohida e'tibor talab qiladi. Nukusdagi kichik majmualar bu borada. Qalin devorlar orqali qishda issiqlikni ushlab qolish; yozgi ayvon va peshtoqlar yordamida quyoshdan himoya qilish; hovli orqali tabiiy shamollatish va mikroiklimni yaratish kabi afzalliklarga ega.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Nukus shahrida shakllanayotgan kichik turar-joy komplekslari arxitekturaviy hamda shaharsozlik jihatidan bir qator muammolarga duch kelmoqda. Avvalo, mavjud komplekslarda kommunal xizmatlarning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi aholi turmush sifatiga bevosita ta'sir qilmoqda. Jumladan, suv ta'minoti, kanalizatsiya va gaz tarmoqlarining qamrovi to'liq emasligi natijasida turar-joy hududlarida qulaylik darajasi pasaymoqda. Bu holat nafaqat ijtimoiy, balki sanitariya-gigiyena nuqtayi nazaridan ham jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, turar-joy binolarining energiya samaradorligi pastligi masalasi ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Issiqlikni tejovchi qurilish materiallari va zamonaviy texnologiyalar yetarlicha qo'llanilmagani sababli uylarning ekspluatatsiya xarajatlari yuqori bo'lib, bu aholining iqtisodiy yukini oshiradi. Shu bilan birga, ekologik barqarorlik talablaridan kelib chiqib, zamonaviy arxitektura yechimlari yetarlicha tatbiq etilmayotgani kuzatiladi[8].

## **Xulosa**

Shunday qilib, Nukus shahridagi kichik turar-joy komplekslari an'anaviy hovli tipologiyasi va zamonaviy qurilish texnologiyalarining uyg'unlashuviga asoslangan. Ular oilaviy turmush tarziga mos, iqlimiy sharoitga moslashgan va madaniy o'ziga xoslikni aks ettiradi. Shu bilan birga, energiya samaradorligi va infratuzilma yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Kelgusida KTKlarni xalqaro barqaror arxitektura talablari asosida takomillashtirish zarur.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning nutqi (2019 yil 23 oktabr) — uy-joy siyosati masalalariga bag'ishlangan yig'ilish. Rasmiy manba: Prezident.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori — “2017–2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to'g'risida” PQ-2639, 2016 yil 21 oktyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori — “Uy-joy va kommunal xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida” PF-6155, 2021 yil 27 yanvar.
4. Xo'janiyazov A. (2018). *Qoraqalpoq uy-joy me'morchiligi*. Nukus: Qoraqalpoq nashriyoti.
5. Berdimuradov Q. (1983). *O'zbek xalq uy-joy me'morchiligi*. Toshkent: Fan.
6. Jumaniyozov, M. (2021). “Qoraqalpog'istonda turar-joy qurilishining tipologik xususiyatlari”. *Arxitektura va Qurilish jurnali*, №3, 45–52.
7. Amos Rapoport (1969). *House Form and Culture*. Englewood Cliffs: Prentice Hall.
8. Paul Oliver (2006). *Built to Meet Needs: Cultural Issues in Vernacular Architecture*. Routledge.

## YASHIL VA BARQAROR ARXITEKTURA ASOSIDA UNIVERSITET KAMPUSINI SHAKLLANTIRISH KONSEPSIYASI

**Rakhimov Kamol Djalolovich**

[Rahimovkamol@mail.ru](mailto:Rahimovkamol@mail.ru)

Arxitektura fanlari nomzodi, texnika fanlari doktori, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti professori.

**Rashidova Nafisa Mustafaeвна**

[nafisarashidova3091@gmail.com](mailto:nafisarashidova3091@gmail.com)